

**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Filologiya fakulteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasining yig'ilish**

BAYONNOMASI № _____

2025 yil, 1-may

Denov t

Yig'ilish raisi:

Z. Suvonov O'zbek tili v adabiyoti
kafedrasini mudiri

Kotiba:

I.Jo'rayev

Qatnashdilar:


Kafedra professor-o'qituvchilar: 18 nafar

KUN TARTIBI:

Ochiq dars muhokamasi. Mavzu: "Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlari"
(N. Saitova – adabiyot fani o'qituvchisi).

Eshitildi:

Yig'ilishni o'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri Z. Suvonov ochib, o'zbek tili fani o'qituvchisi N. Saitova Filologiya va tillarni o'qitish o'zbek tili yo'nalishi, 204 guruh O'zbek adabiyoti tarixi fanidan o'tkazilgan "Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlari" mavzusidagi 2 soatlik ochiq darsining yutuqlari, albatta, ko'p. O'qituvchining darsga puxta tayyorgarligi ko'rinib turibdi, dars o'tish mahorati talabga javob beradi, nutq madaniyati, so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishi yaxshi, darsning reglamenti to'g'ri taqsimlandi, talabalarga savollar berish orqali auditoriyani o'ziga jalb qila oldi. Videoproektordan unumli foydalandi, o'tilgan darsni namunali deb baholayman.



Ushbu masala yuzasidan o'zbek tili va adabiyoti kafedrasini professor o'qituvchisi N.Nabiyeva so'zga chiqib, dedi:N. Saitova tomonidan o'tilgan dars menga juda yoqdi. O'qituvchining bilim darajasi

yetarli ekanligi sezilib turibdi. Darsda o'zini tutishi, talabalar bilan savol-javob tarzida dars o'tish uslubidan foydalanishi hozirgi yangi pedagogik texnologiya usullarini qo'llayotganligidan dalolat berib turibdi. Nutqi ravon va sodda bo'lishi sababli aytilayotgan fikrlar talabalarga yaxshi yetib bormoqda. O'qituvchi darsdan ko'zlangan maqsadga erisha oldi deb o'ylayman va namunali deb baholayman”.



Shundan keyin O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti A. Hamidov so'zga chiqib, quyidagilarni ta'kidlab o'tdi: "Dars yaxshi tashkil qilindi, siyosiy axborotlar va kundalik yangiliklar haqida ma'lumotlar berildi, uyga vazifa tarqatma materiallar asosida so'raldi, o'tilgan mavzular qisqa savol-javoblar asosida baholandi. O'qituvchi yangi mavzuni talabalarga yaxshi yetkazib berdi. Dars jarayonida AKT dan foydalanib, talabalarni darsga qiziqitira oldi. Demak, o'qituvchi darsga har tomonlama puxta tayyorgarlik ko'rgan, shuning uchun bu darsni ijobiy deb baholayman".

Yig'ilish so'ngida so'z navbati o'qituvchi N. Saitovaga berildi. N. Saitova amaliy mashg'ulot darsida ishtirok etgan professor-o'qituvchilarga o'z minnatdorchiligini bildirdi va muhokama jarayonida professor-o'qituvchilar tomonidan bildirilgan fikrlarni keyingi pedagogik faoliyatida e'tiborga olishini ta'kidladi.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqib yig'ilish qaror qiladi:

1. Professor-o'qituvchilar tomonidan bildirilgan fikr mulohazalar ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. O'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchisi N. Saitovaning "Mavzu: "Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlari" mavzusidagi ochiq darsi yaxshi deb baholansin.

Yig'ilish raisi:

Kotibi:

Z. Suvonov

I. Jo'rayev